

## O‘zbek Tilining Izohli Lug‘Atida Keltirilgan Olinma So‘Zlar Tadqiqi

G‘iyos Do‘stmurodov<sup>1</sup>, Mohinur Boyjigitova<sup>2</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 2022/2023-yillarda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi “L” harfiga doir o‘zlashmalar aniqlanib, ularning qaysi tillardan kirib kelganligi, qaysi sohaga doir olinmalar mavjudligi borasida fikr bildirilgan. Shuningdek, maqolada o‘zlashma so‘zlarining statistik tahlili ham keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** lug‘at, o‘zlashmalar, lingvistika, lug‘at turlari, termin, drevatsiya, atamalar, olinma so‘zlar.

### **Kirish**

Til – millat qiyofasining bir bo‘lagi. Har bir xalqning o‘ziga xos tili bo‘lib, uning madaniyati, qadriyati va urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Til orqali insonlar o‘z fikrlarini ifoda etadilar, tajriba almashadilar va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadilar. Ayniqsa ona tili millatning ruhiyati va birligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir. Ona tilining qadrlanishi va rivojlanishi millatning kelajagi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, har bir inson o‘z tilini sevishi, uni hurmat qilishi va rivojlantirishga hissa qo‘sishni lozim. Zero, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’kidlaganidek – “milliy til – millatning yuragidir. Tilni yo‘qotish – millatning qalbini sug‘urib olish demakdir. Tilni yo‘qotgan millat boshqa millatlarga singib ketadi”[4: 34]. Shu ma’noda o‘zbek tilini asrash, uning sofligini saqlash va ayni damda uning lug‘at boyligini asrash uchun barchamiz birdek mas’ulmiz. O‘zbek tili leksikasi, ya’ni so‘z boyligi bir qancha manbalar asosida boyib boradi. Ularni, eng avvalo, ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

**1. Ichki manba** – o‘z ichki imkoniyatlari asosida boyish.

**2. Tashqi manba** – boshqa tillardan so‘z olish asosida boyish.

O‘zbek tili so‘z boyligi jihatidan juda boy bo‘lib, uning lug‘aviy tarkibini asliy turkiy so‘zlar, arab, fors va rus tillaridan olingan so‘zlar, so‘nggi yillarda esa ingliz va boshqa zamonaviy tillardan kirib kelgan so‘z va terminlar tashkil etadi.

Olinma so‘zlarga qaraganda qadimdan qo‘llanib kelayotgan so‘zlar ham mavjud bo‘lib ular o‘z qatlamni tashkil etadi. O‘z qatlam o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, uyg‘ur, qoraqalpoq singari tillar o‘zaro qarindosh tillar bo‘lib, ular turkiy tillar guruhini tashkil etadi. Barcha turkiy tillar uchun umumiy iste’molda bo‘lgan bunday so‘zlar umumturkiy so‘zlar deyiladi. O‘zbek tili leksikasining katta qismini umumturkiy qatlamga mansub so‘zlar tashkil etadi. O‘z qatlam bu tildagi eng qadimiy va milliy so‘zlar majmuasi bo‘lib, xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bu qatlam o‘zbek tilining asosi hisoblanadi

O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida o‘zlashma so‘zlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, chet tili so‘zlarining tilimizga kirib kelishi va ularning ishlatalishi tilimizdagi ma’lum bir yangi so‘zlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi va bu turdagи so‘zlar guruhi o‘zlashma(olinma) so‘zlar deyiladi. O‘zlashma – boshqa tillardan olingan, ammo o‘sha tilga xos talaffuz va yozuv shaklida ishlataladigan so‘zlardir. O‘zlashmalar bir tilga boshqa bir tildan kirgan so‘zlar bo‘lib, ular grammatick jihatdan asl tilga moslashtirilgan bo‘ladi. O‘zlashma qatlam tilimizning lug‘at tarkibida boshqa xalqlar tilidan kirib

<sup>1</sup> IPU Samarqand kampusi dotsent v.b.

<sup>2</sup> Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



kelgan so‘zlar ham mavjud. Bunday so‘zlar tilning lug‘at boyligidagi o‘zlashma qatlamni tashkil etadi. O‘zlashgan so‘zlar vaqt o‘tishi bilan o‘zbek tilining fonetik, morfologik va grammatik qoidalariga moslashgan holda ishlatiladi va lugat tarkibini hosil qiladi. “Lug‘at” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “so‘zlar to‘plami” yoki “leksikon” ma’nosini anglatadi. Lug‘at deganda, odatda, ma’lum bir tilda ishlatiladigan so‘zlarning ma’nosini, talaffuzi, yozilishi va qo‘llanishiga oid ma’lumotlar jamlangan kitob yoki elektron manba tushuniladi. Lug‘at turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, **ikki yoki ko‘p tilli lug‘at** (so‘zlarning tarjimasini beruvch lug‘at: o‘zbekcha – inglizcha lug‘at), **terminologik lug‘at** (ma’lum bir soha yoki fan yo‘nalishiga oid atamalar lug‘ati), **dialektologik lug‘at** (turli shevalardagi so‘zlarni jamlovchi lug‘at), **izohli lug‘at** (so‘zlarning ma’nosini, ishlatilish doirasi, talaffuzi va grammatik xususiyatlarini tushuntirib beruvchi lug‘at) kabi. Bularning ichida tilning leksik tarkibini nisbatan mukammal aks ettiruvchi so‘zlik izohli lug‘atdir. Bu turdagilug‘atlar bir tildagi so‘zlarning izohini aynan o‘sha tilda beradi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati ilk bor 1981-yilda nashr qilingan va u 2 jilddan iborat bo‘lib, 80000 ga yaqin so‘z va so‘z birikmalari kiritilgan. Keyinchalik izohli lug‘at bir necha marta nashr etildi, biroq takomillashgan va 85000 so‘zni o‘z ichiga olgan lug‘at 2022/2023-yillarda lotin yozuvida 6 jildli yangi tahrirda chop etildi. Tabiiyki, lug‘at hajmining oshishiga olinma so‘zlarning ham hissasi mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha mavzuviy guruhlarga ajratish mumkin:

#### 1-jadval

<b>1</b>	<b>Arabcha</b>	<b>56</b>
<b>2</b>	Forscha	52
<b>3</b>	Lotincha	44
<b>4</b>	Yunoncha	31
<b>5</b>	Fransuzcha	20
<b>6</b>	Ruscha	16
<b>7</b>	Inglizcha	15
<b>8</b>	Nemischa	14
<b>9</b>	Italyancha	4
<b>10</b>	Xitoycha	2
<b>11</b>	Ispancha	1
<b>12</b>	Portugalcha	1
<b>13</b>	Armancha	1
<b>14</b>	Gollancha	1

**Lotincha.** Lotin tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosan meditsina sohasiga aloqador. Masalan, laringet “*larynges – hiqildoq*”. Hiqildoq shilliq pardasining tumov, gripp va boshqa shu kabi kasalliklar oqibatida yallig‘lanishi[3: 354].

**Forscha.** Fors tili o‘zbek tiliga qadimdan katta ta’sir ko‘rsatib kelgan. Fors tilidan kirgan so‘zlar harbiy sohada keng qo‘llaniladi: **Lashkargoh** [lashkar turadigan joy: harbiy qarorgoh]. Lashkar kelib qo‘nadigan joy, harbiy qarorgoh, lager. Masalan, *Bu kecha lashkargohda ish qaynadi*.

**Arabcha.** Arab tili Islom madaniyati ta’siri orqali o‘zbek tilida chuqur iz qoldirgan. Diniy va ilmiy atamalar ko‘pincha arab tilidan kirgan. Jumladan, **laylatulqadr** [ qadr kechasi]. Amazon oyining muqaddas sanaluvchi yigirma yettinchi tuni. Amazon oyining 27-kechasi “laylaturqadr”, ya’ni “qadr kechasi” sanalar edi.

**Yunoncha.** Yunon tilidan kirgan so‘zlar, asosan, ilm-fanga oid. Ular ilmiy terminologiyada katta ahamiyatga ega. **Logistika** [logistike – hisoblash, muhokama san’ati] 1) matematik, mantiq, aniq hisob-kitob qilish san’ati.

2) matematikani mantiq orqali asoslovchi matematik – falsafiy oqim: yo‘nalish.

Logistika B.Rassel va uning maktabi vakillarining asarlarida bayon etilgan matematik, mantiq taraqqiyotidagi bosqichning nomi sifatida ham yuritiladi.

**Inglizcha.** Zamoniaviy texnologiya va globalizatsiya ta’siri ostida inglizcha so‘zlar o‘zbek tiliga kirib kelgan. Jumladan, **Lazer** [lazer “light amplification by stimulated emission of radiation” (majburiy nurlanish oqibatida yorug‘likning ko‘payishi, kuchayishi) so‘zlar birikmasidagi bosh harflarni qo‘shish



orqali hosil qilingan] aniq uzunlikdagi to‘lqinga ega, juda ensiz va kuchli taramli nur manbayi bo‘lgan optik kvant generator (texnika, aloqa va tibbiyotda keng qo‘llaniladi).

Ma’lum bo‘lishicha, o‘zini fanga baxshida etgan bu olim yarimo‘tkazgichlar lazerini kashf etibdi.

**Ruscha.** Ruscha o‘zlashmalar, ayniqsa, sovet davrida keng tarqalgan. Bu so‘zlar kundalik hayot va texnika bilan bog‘liq. *Lampochka* [kichik lampa] elektr toki bilan nur tarqatadigan, atrofi sharsimon, noksimon va boshqacha shakli shishadan iborat yoritish asbobi; elektr chiroq. *Sherbek qorong‘u bog‘ko‘chadan o‘tib, har joy-har joyda simyog‘ochlarda elektr lampochkalar qizarib turgan keng kuchaga yetganida, tanish hamqishloqlariga duch keldi.*

**Nemischa.** Nemis tilidan kirgan so‘zlar ilm-fan, texnika va sanoat sohalariga tegishli. Jumladan, *lager* [lager – o‘rin, joy, qarorgoh; ombor] 1. Qo‘shtining aholi yashamaydigan yerdagi vaqtincha qarorgohi. 2. Vaqtincha turish uchun qurilgan joy, vaqtincha qarorgoh. 3. Mahbuslar va harbiy asirlar saqlanadigan joy. 4. *ko‘chma*. Muayyan bir maslakdagi ijtimoiy- siyosiy guruh; hammaslak kishilar to‘dasid. Tichlik tarafdforlari lageri.

**Italyancha.** Italyancha o‘zlashmalar asosan san’at va musiqaga oid. *Libretto* [libretto – kitobcha] 1. Opera, operetta, oratoriya kabi musiqali - dramatik asarlarning so‘z matni; opera, balet mazmunining qisqa bayoni. *Oradan sal fursat o‘tmay, Hamid G‘ulom librettosi asosida “Xorazm qo‘srig‘i” operasini yozdi.*

2. Kinofilmning syujet rejasi yoki ssenariy sxemasi.

**Xitoycha.** Xitoy tilidan kirgan so‘zlar odatda oziq-ovqat yoki ixtisoslashgan mahsulotlarga tegishli. Jumladan, *Lag‘mon* [cho‘ziq xamir] xamirni cho‘zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat.

**Ispancha.** Ispan tilidan kirgan so‘zlar asosan hayvonot dunyosiga aloqador.


Jumladan, *lama* [lama-indeys tillaridan] zool. Janubiy Amerikada yashaydiga o‘rkachsiz kichikroq uya (xonakilashtirilgan lamadan yuk tashishda, go‘sht va qimmatbaho jun olishda foydalaniladi).

**Armancha.** Arman tilidan kirgan so‘zlar juda kam uchraydi. Odatda kundalik hayotda qo‘llaniladi. *Lavash* – [yupqa, yassi non]. *Bug‘doy unidan oshirilmay xamir tayyorlanib, yupqa qilib yoyilgach, ikki yuzasi qizartirib olinadigan non turi; turli taomlar tayyorlash uchun yarimmahsulot.*

**Portugalcha.** Portugalcha o‘zlashmalar asosan san’at sohasiga aloqador.

Jumladan, *lambada* [lambada – tayoq zarbi, zarbasi] oyoq va belni alohida harakatlantirib, juft-juft bo‘lib o‘naladigan brazilcha raqs turi. Olima so‘zlearning o‘zlashish darajasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval



Bu so‘zlarning har biri o‘zbek tilini boyitish va rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ular nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash uchun imkon yaratadi, balki madaniyatlararo aloqalarni aks ettiradi. Bu o‘zlashmalar o‘zbek tilining boshqa tillar bilan o‘zaro ta’sirini va ochiqligini namoyon etadi. O‘zlashgan so‘zlarning turli manbalari o‘zbek tilining global madaniyat va ilm-fan jarayonlarida faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi. Lotin, yunon, arab va fors tillaridan kirgan ilmiy atamalar ilm-fan va texnologiya rivojiga sezilarli ta’sir etgan. Fransuz va italyan tillaridan olingan so‘zlar san’at, musiqa va moda kabi nozik sohalarning tilini boyitdi. Rus va ingliz tillaridan kirgan so‘zlar texnika, kundalik hayot va zamonaviy texnologiyalarni ifodalash uchun yangi so‘zlar kiritdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Toshkent. 2022-yil.
2. “O‘zbek tili leksikologiyasi”. Toshkent. 1981-yil.
3. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”. Toshkent. 2022-yil.
4. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. Toshkent.1913-yil

